

ARAB TILIDA KISHILIK OLMOSHLARI

Mirisayeva Lobarxon Ravshanbekovna

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

1-kurs 25-03 guruh talabasi

Raxmonov Azimjon Komilovich

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

Tillarni o'qitish markazi rahbari

Annotatsiya. Maqolada mustaqil so'z turkumlaridan biri bo'lgan olmosh so'z turkumi haqidagi qarashlar, jumladan, olmoshning ma'no turlari, badiiy adabiyotda qo'llanilganda ifodalaydigan turli xil ma'no qirralari yuzasidan fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Olmosh so'z turkumi, kishilik, birikma olmoshlari, shaxs kishilik olmoshi, o'zlik olmoshi.

Abstract. The article discusses the views of the rhyme phrase, which is one of the independent word categories, including the types of meaning of the rhyme and the different aspects of meaning that it expresses when used in fiction.

Keywords: Pronouns, person, show, identity, question, designation, suspicion, indivisibility.

Kirish. Bugungi kunda barcha sohalar qatorida o'zbek tilshunosligida qator o'zgarish va yangilanishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar, albatta, jamiyat taraqqiyotining rivojlanishidan darak beradi. Bugun o'zbek tilini yaxlit bir tizim sifatida o'rganish, uning mantiqiy madaniyatini zamon talablari darajasiga ko'tarish hayotimizning eng asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Qisqa davr ichida o'zbek tilshunosligi sezilarli darajada muvofaqqiyatlarga erishdi. Lisoniy birliklarni yangidan yangi metod va usullar asosida tadqiq etish, ularning til tizimidagi tutgan

o‘rnini yoritib berish oldimizga turgan eng asosiy vazifalardan biridir.

Shulardan biri alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan olmosh so‘z turkumi bo‘lib, uning ma’no turlari yuzasidan turlicha yondashuvlar mavjud. Nutqda olmoshlar o‘zining leksik-grammatik vazifasidan tashqari nutqiy vaziyatga qarab turlicha stilistik vazifalarni doim bajaradi va emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlikni vujudga keltiradi.

Asosiy qism. Olmosh (ichi bo‘sh so‘zlar) - Barcha mustaqil so‘z turkumlari va hatto yordamchi so‘zlar, so‘z birikmasi hamda gap o‘rnida almashinib qo‘llanuvchi, ularga ishora qiluvchi yoki so‘roq bildiruvchi so‘zlar olmosh hisoblanadi. Olmoshlarning aniq atash ma’nosi bo‘lmaydi. Uning qaysi ma’noda kelayotganligi matnda qaysi so‘z yoki gap o‘rnida almashinib kelishiga qarab belgilanadi.

Olmoshlarning bevosita atash ma’nosiga ega bo‘lmaganligi uchun “Ichi bo‘sh so‘zlar” deb ham yuritiladi.

Arab tilida kishilik olmoshlari (الضمائر الشخصية - *ad-ḍamā’ir ash-shakṣiyyah*) shaxs, son (birlik, ikkilik, ko‘plik) va jins (erkak, ayol)ga qarab o‘zgaradi.

Arab tilida kishilik olmoshlarining ikki turi mavjud:

1. **Alohida yoziladigan (mustaqil) olmoshlar** (الضمائر الرفع المنفصلة - *ḍamā’ir ar-raḥ al-munfaṣilah*): ular gapda mustaqil so‘z sifatida ishlatiladi va asosan ega vazifasini bajaradi.
2. **Birikib yoziladigan (qo‘shilma) olmoshlar** (الضمائر متصلة - *ḍamā’ir muttaṣilah*): ular otlarga, fe‘llarga yoki predloglarga qo‘shimcha sifatida qo‘shiladi (masalan, egalikni yoki to‘ldiruvchini bildirish uchun).

1-jadval. Quyida alohida yoziladigan kishilik olmoshlari keltirilgan

Shaxs	Son	Jins	Arabcha yozilishi	Transliteratsiya	O‘zbekcha ma’nosi
1-shaxs	Birlik	Erkak/Ayol	أنا	<i>anā</i>	Men

	Ko‘plik	Erkak/Ayol	نَحْنُ	<i>nahnu</i>	Biz
2-shaxs	Birlik	Erkak	أَنْتَ	<i>anta</i>	Sen (erkak kishi)
	Birlik	Ayol	أَنْتِ	<i>anti</i>	Sen (ayol kishi)
	Ikkilik	Erkak/Ayol	أَنْتُمَا	<i>antumā</i>	Sizlar (ikki kishi)
	Ko‘plik	Erkak	أَنْتُمْ	<i>antum</i>	Sizlar (ko'p erkaklar/aralash guruh)
	Ko‘plik	Ayol	أَنْتُنَّ	<i>antunna</i>	Sizlar (ko'p ayollar)
3-shaxs	Birlik	Erkak	هُوَ	<i>huwa</i>	U (erkak kishi)
	Birlik	Ayol	هِيَ	<i>hiya</i>	U (ayol kishi)
	Ikkilik	Erkak/Ayol	هُمَا	<i>humā</i>	Ular (ikki kishi)
	Ko‘plik	Erkak	هُمْ	<i>hum</i>	Ular (ko'p erkaklar/aralash guruh)
	Ko‘plik	Ayol	هُنَّ	<i>hunna</i>	Ular (ko'p ayollar)

Arab tilida ikkilik shaklning mavjudligi hamda 2- va 3-shaxslarda jinsga qarab olmoshlarning farqlanishi uning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir.

2-jadval. 1-shaxs misollari (Men/Biz)

Arabcha jumla	O‘zbekcha ma’nosi	Izoh
---------------	-------------------	------

أَنَا طَالِبٌ	Men talabaman (o'g'il bola).	أَنَا(Men) - birlik, erkak jinsi uchun.
أَنَا طَالِبَةٌ	Men talabaman (qiz bola).	أَنَا(Men) - birlik, ayol jinsi uchun.
نَحْنُ أَصْدِقَاءُ	Biz do'stlarimiz.	نَحْنُ(Biz) - ko'plik, erkak/aralash guruh uchun.
نَحْنُ فِي الْبَيْتِ	Biz uydaymiz.	نَحْنُ(Biz) - ko'plik, ayol kishilar uchun ham ishlatiladi.

3-jadval. 2-shaxs misollari (Sen/Sizlar)

Arabcha jumla	O'zbekcha ma'nosi	Izoh
أَنْتَ مُعَلِّمٌ	Sen o'qituvchisan (erkak).	أَنْتَ(Sen) - birlik, erkak jinsi.
أَنْتِ مُعَلِّمَةٌ	Sen o'qituvchisan (ayol).	أَنْتِ(Sen) - birlik, ayol jinsi.
أَنْتُمْ رِجَالٌ	Sizlar erkak kishilarsiz.	أَنْتُمْ(Sizlar) - ko'plik, erkak jinsi uchun.
أَنْتُنَّ بَنَاتٌ	Sizlar qiz bolalarsiz.	أَنْتُنَّ(Sizlar) - ko'plik, ayol jinsi uchun.

4-jadval. 3-shaxs misollari (U/Ular)

Arabcha jumla	O'zbekcha ma'nosi	Izoh
هُوَ مُهَنْدِسٌ	U muhandis (erkak).	هُوَ(U) - birlik, erkak jinsi.
هِيَ مُهَنْدِسَةٌ	U muhandis (ayol).	هِيَ(U) - birlik, ayol jinsi.
هُمْ فِي الْمَدْرَسَةِ	Ular maktabda (erkaklar).	هُمْ(Ular) - ko'plik, erkak jinsi/aralash guruh.

هُنَّ جَمِيلَاتٌ	Ular chiroyli (ayollar).	هُنَّ (Ular) - ko'plik, ayol jinsi uchun.
------------------	--------------------------	---

Ushbu misollarda mustaqil kishilik olmoshlari gapning egasi vazifasida kelgan.

Kishilik olmoshlari o'rnida qo'llanilib ko'pincha shaxsni, ba'zan predmetni ko'rsatuvchi o'z so'zi o'zlik olmoshi hisoblandi. O'zlik olmoshi egalik shakllarini olib har uchala shas kishilik olmoshi o'rnida almashinib qo'llaniladi.

Men - o'zim (أنا نفسي.)

Biz - o'zimiz (نحن أنفسنا)

Sen - o'zing (أنت نفسك.)

Siz - o'zingiz (أنت نفسك.)

U - o'zi (هو - نفسه)

Ular - o'zlari (هم أنفسهم)

Har bir tilning asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan kishilik olmoshlari odamlar o'rtasidagi muloqotda bevosita ishtirok etuvchi shaxslarga murojaat qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ular kundalik nutqda eng ko'p qo'llaniladigan unsurlardan biridir. Kishilik olmoshlari orqali biz o'zimiz, suhbatdoshimiz yoki boshqa shaxslar haqida gapiramiz. Har bir tilda ular o'ziga xos grammtik shakl va xususiyatlarga ega. Arab tilida kishilik olmoshi yozuvdagi holatiga ko'ra, ajratilib yoziluvchi, u yoki bu so'zga qo'shib yoziluvchi olmoshlarga bo'linadi. Ajratilib yoziluvchi kishilik olmoshlari bosh kelishikda kelgan kishilik olmoshlarini bildiradi.

Kishilik olmoshlarining ikkinchi turi birikma olmoshlari deyiladi va ular u yoki bu so'zdan keyin shu so'zga qo'shib yoziladi. Birikma olmoshlari qaysi so'zga qo'shib kelganiga bog'liq holda bosh kelishikdan boshqa beshta kelishikdagi kishilik olmoshlaridan birini bildiradi. Masalan, menda, sendan, uning va h.k.⁴⁷

Birikma olmoshlari otga, fe'lga, predloglarga va yuklamalarga qo'shib keladi. Masalan, kitobi uning - كَتَبْتُهَا - eshitdim uni - سَمِعْتُكَ - sizlardan - سَمِعْتُكُمْ - Arab tilida kishilik olmoshlari uch shaxsga bo'linadi. Birinchi shaxs (المتكلم), ikkinchi shaxs (المخاطب), uchinchi shaxs (الغائب). Bundan tashqari, yolg'izlik, ya'ni birlik (المفرد), ikkilik (الثنى) va ko'plik (الجمع) kabi son kategoriyasiga, shuningdek, erkak (المذكر) va ayol (المؤنث) jinslariga qarab o'z shaklliga ega bo'ladi.

⁴⁷ N.Ibrohimov. Arab tili grammatikasi 1-qism. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi":T- 1997.

Shaxs	Jins	Birlik	Ikkilik	Ko'plik
III	mz	هُوَ	هُمَا	هُمْ
	mn	هِيَ	هُمَا	هُنَّ
II	mz	أَنْتَ	أَنْتُمَا	أَنْتُمْ
	mn	أَنْتِ	أَنْتُمَا	أَنْتُنَّ
I		أَنَا		نَحْنُ

Kishilik olmoshlarining ikkinchi turi hisoblangan birikma olmoshlari esa quyidagi shakllarga ega:

Shaxs	Jins	Birlik		Ikkilik		Ko'plik	
		aj.olm.	qo'sh.olm.	aj.olm.	qo'sh.olm.	aj.olm.	qo'sh.olm.
III	mz	هُوَ	هُـ	هُمَا	هُمَا	هُمْ	هُمْ
	mn	هِيَ	هَا	هُمَا	هُمَا	هُنَّ	هُنَّ
II	mz	أَنْتَ	كَ	أَنْتُمَا	كُمَا	أَنْتُمْ	كُم
	mn	أَنْتِ	كِ	أَنْتُمَا	كُمَا	أَنْتُنَّ	كُنَّ
I		أَنَا	يـ			نَحْنُ	نَا

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, kishilik olmoshi so'z turkumlarini tadqiq etish jarayonida badiiy adabiyotga murojaat qilinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Chunki, olmosh ifodalaydigan turli xildagi ma'nolar matn ichidan anglashilib turadi. Biz tadqiq etgan mavzu bugungi kundagi yechimini kutayotgan mavzulardan biridir. Shu bois, arab tili grammatikasida kishilik olmoshlari muhim ahamiyatga ega. Ushbu tildagi kishilik olmoshi son, shaxs va jins kategoriyalari bo'yicha ingliz tiliga o'xshashliklarga ega bo'lsa-da, har bir tilning o'ziga xos grammatik xususiyatlari mavjud. Arab tillidagi kishilik olmoshlarini chuqur o'rganish, nafaqat tilni to'g'ri qo'llashda, balki tarjima, tahlil va lingvistik tadqiqotlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ushbu mavzuni chuqur o'rganayotgan talabalar va tilshunolar uchun foydali va dolzarb deb baholash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA TIL O‘QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
2. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРҲОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
3. MUTARRIZIYNING “RISOLATUN FIN NAHV” ASARI MO‘JAZ GRAMMATIK MANBA.(2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4),85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
4. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: “RISALATUN FIN-NAHV” ASARI VA ZAMONAVIY TARJIMA TA’LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
5. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.
6. Jo‘rayeva, M. A. “SHARHI MULLO” A RARE SOURCE.
7. Fatilloev, M. (2025). “MU’JAMU-L-UDABO” DA MOVAROUNNAHR OLIMLARI HAQIDA MA’LUMOT. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 645-654.
8. Raximjonov, M. (2023). Al-Farg ‘oniyning falakiyot haqidagi qarashlari. *Alfraganus*, (2 (2)), 28-33.
9. Nugmanovich, R. M. Methods of Working on the Text in Uzbek Language Lessons. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(10), 234-237.
10. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGAHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NA’T QISMLARINI BERILISHI. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 618-627.
11. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit" Malak" In The Epic" Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS Учредители: The USA Journals*, 2(9), 493-498.

12. Xodi o‘g‘li, M. I. (2025, October). SAIDBEK HASANOV TAHLILIDA O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTINING ZAMONAVIY TALQINI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 2, pp. 360-363).
13. Rustamova, M. B. Q., & Raxmonov, A. K. (2026). *Al-Mutarriziyning “Risalatun fi an-nahv” asarida ko‘makchi so‘zlarning semantik va sintaktik xususiyatlari*. *Science Time Journal*, 4(5/1), 487–492.
14. Komilovich, R. A. (2026). NOSIR AL-MUTARRIZIYNING “RISALATUN FIN-NAHV” ASARIDA SO ‘Z TURKUMLARI TASNIFI VA ULURNING LINGVISTIK MEZONLARI. *Innovation and development*, 4(5), 339-343.
15. Рахмонов, А. К. (2026). ЛЕКСИКОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ АЛ-МУТАРРИЗИЯ. «*Qazaqtany*», (29), 162-171.
16. Raxmonov, A. K. (2025). *Mutarriziyning “Risalatun fin nahv” asari mo‘jaz grammatik manba*. *Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85–88.
17. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziyning “Risalatun fin-nahw” asarida grammatik kategoriya talqini va uning o‘zbek tilshunosligidagi muqobillari*. In *Ilm-fan muammolari tadqiqotchilar talqinida* (pp. 136–139). Alfraganus University.
18. Raxmonov, A. K. (2025). *Nosir al-Mutarriziy merosida tarjima nazariyasi va didaktikasi: “Risalatun fin-nahv” asari va zamonaviy tarjima ta’limi integratsiyasi*. *Science Time Journal*, 3(5), 150–155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>
19. Жураева, С. Х. (2024). ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МОЛОДЁЖНОГО СЛЕНГА В РУССКОМ ЯЗЫКЕ. *XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR*, 1(2), 531-536.
20. Jurayeva, N. (2023). Mumtoz she’riyatda Bobur g’azallarining poetik xususiyatlari. *Alfraganus*, (1 (1)), 30-34.